

**Veterinariya-sanitariya ekspertizasi kafedrası assistenti, v.f.f.d
(PhD), Z.I.Ilyosovning “Asalni laborator usulda tekshirish”
mavzusidagi ochiq dars mashg‘ulotining ishlanmasiga**

TAQRIZ

Ochiq dars uchun tanlangan amaliy mashg‘ulot mavzusi fanning o‘quv dasturi va ishchi dasturiga to‘liq mos keladi. Darsni tashkil etishda metodik jihatdan to‘g‘ri yondashuv tanlangan bo‘lib, o‘qitishning texnik vositalaridan samarali foydalanishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Dars ishlanmasida texnologik karta, mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari, dars savollari hamda foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati to‘liq yoritilgan. Shuningdek, unda pedagogik texnologiyalar asosida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatlari, ularning kutilayotgan natijalari aniq belgilab berilgan.

Mashg‘ulot mazmunida asal haqida umumiy tushunchalar, uning tasnifi, sifat ko‘rsatkichlari hamda soxtalashtirilgan asalni aniqlash bo‘yicha laboratoriya tekshiruv usullari batafsil bayon etilgan.

Kafedra assistenti Z.I.Ilyosov tomonidan tayyorlangan “**Asalni laborator usulda tekshirish**” mavzusidagi amaliy dars mashg‘ulotining ishlanmasi hozirgi zamon ta‘lim texnologiyalari talablariga to‘liq javob beradi deb hisoblayman va uni o‘quv mashg‘ulotida foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**Veterinariya va chorvachilik sohasida
pedagog hamda mutaxassis kadrlarni
qayta tayyorlash va ularni malakasini
oshirish instituti direktori, v.f.f.d., professor**  **R.B.Davlatov**



